

INGLIZ TILINI O'QITISHDA "SOFT SKILLS"NI RIVOJLANTIRISH TIZIMINING KONSEPTUAL ASOSLARINI ISHLAB CHIQISH ZARURATI

Karimova Nilufar Ummatqul qizi

O'zDJTU, dotsent

Anotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'limning nofilologik (iqtisodiy) yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitish jarayonida "soft skills"ni rivojlantirish tizimining konseptual asoslarini ishlab chiqish zarurati ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqotda mavjud pedagogik amaliyotdagi beshta asosiy muammo: "soft skills" rivojlantirishning tizimlashtirilmaganligi, ingliz tili o'quv jarayonida ushbu ko'nikmalarning maqsadli integratsiyasi yetishmasligi, baholash tizimining standartlashtirilmaganligi, pedagogik-metodik jihatdan tizimning to'liq shakllanmaganligi hamda talabalarda ichki motivatsiya va shaxsiy mas'uliyatning pastligi ko'rsatib o'tilgan. I.A. Zimnyaya, V.I. Baydenko, J. Heckman, A.A. Verbitskiy, B. Zimmerman kabi xorijiy va mahalliy olimlarning nazariy qarashlari tahlil qilingan. D. Kolb, L. Vigotskiy, A. Bandura, D. Schön, T. Hodgson, H. Spowart va D. Sampson tomonidan ishlab chiqilgan "soft skills"ni rivojlantirishga oid yetakchi konsepsiyalar qiyosiy jihatdan o'rganilgan. Tahlil natijalari asosida mavjud yondashuvlarning mustaqil ta'lim va raqamli transformatsiya talablarini yetarlicha qamrab olmasligini inobatga olgan holda, iqtisodiy yo'nalishdagi talabalar uchun ingliz tili mustaqil ta'limi sharoitida "soft skills"ni takomillashtiruvchi yaxlit konseptual-metodik model ishlab chiqish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbek tilida: soft skills, ingliz tili o'qitish, konseptual asos, oliy ta'lim, kommunikativ kompetensiya, mustaqil ta'lim, pedagogik model, motivatsiya, baholash tizimi, iqtisodchi talabalar, metakognitsiya, raqamli ta'lim.

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki professional va shaxsiy kompetensiyalar — "soft skills"ni ham rivojlantirishi zarur bo'lgan bir vaqtda ingliz tilini o'qitish jarayoni nafaqat til bilimlarini shakllantirish vositasi sifatida, balki kommunikativ, o'z-o'zini boshqarish va tafakkur ko'nikmalarini mustahkamlash uchun qulay platforma sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu bois, oliy ta'limning nofilologik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishda "soft skills"ni rivojlantirish tizimini konseptual asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tilini o'qitishda "soft skills"ni rivojlantirish tizimining konseptual asoslarini ishlab chiqish zarurati quyidagi omillar bilan izohlanadi.

Birinchidan, oliy ta'lim tizimida "soft skills"ni rivojlantirish jarayonining tizimlashtirilmaganligidir. I.A. Zimnyayaning ta'kidlashicha, kompetensiyalar yaxlit psixologik tuzilma bo'lib, ularni bir-biridan ajratilgan holda shakllantirish samarasizdir [11]. Biroq, amaliyotda "soft skills" komponentlari alohida mashg'ulotlar doirasida, eng yaxshi holatlarda esa ko'pincha alohida fanlar yoki qisqa muddatli treninglar doirasida epizodik tarzda shakllantirilishiga guvoh bo'lamiz. Bunday yondashuvda ko'nikmalar yagona pedagogik maqsadga yo'naltirilmagan va ular o'rtasida ichki mantiqiy bog'liqlik ta'minlanmagan.

Bu holat V.I. Baydenko tomonidan qayd etilganidek, kompetensiyalarning fragmentar (parchalangan) shakllanishiga va natijada bitiruvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatida barqaror va yaxlit professional kompetensiyaga aylana olmasligiga olib keladi [3]. Iqtisodchi talabalar misolida olib qaraganda, bu tizimsizlik ularning mutaxassislik bilimlari bilan kommunikativ qobiliyatlari yoki tafakkur ko'nikmalari o'rtasida uzilish hosil qiladi: talaba nazariy hisob-kitoblarni a'lo darajada bilsa-da, ularni jamoada himoya qilish yoki noaniq iqtisodiy vaziyatlarda mas'uliyatli qaror qabul qilishda qiyinchilikka uchraydi.

Nobel mukofoti sovrindori J. Heckman o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, kognitiv bo'lmagan ko'nikmalar (non-cognitive skills) o'zaro ierarxik bog'liqlikda rivojlanishi shart; aks holda, ta'lim oluvchining shaxsiy samaradorligi pastligicha qolaveradi. Ierarxiya — bu quyi darajadagi elementlar yuqori darajadagi elementlar uchun asos bo'ladigan tizimdir. Xekman nazariyasida bu shuni anglatadiki, inson boshlang'ich (fundamental) ko'nikmalarni shakllantirmasdan turib, murakkab (strategik) ko'nikmalarga erisha olmaydi. Masalan, buni bir imorat tarzida tasavvur qilamiz. Bunda poydevor: maqsad qo'yish (goal setting), vaqtni to'g'ri taqsimlash (time management) va hissiy barqarorlik (self-control), devorlar hamkorlik va muloqot (communication), tom esa boshqaruvchilik va tashabbuskorlikdir. Agar poydevor (maqsad qo'yish, vaqtni to'g'ri taqsimlash) bo'lmasa, tom (boshqaruvchilik va tashabbuskorlik) o'z-o'zidan qulab tushadi. Ya'ni, o'z his-tuyg'ularini boshqara olmaydigan (quyi ierarxiya) odam, jamoani boshqarishi (yuqori ierarxiya) juda qiyin.

Ikkinchidan, *ingliz tili o'quv jarayonida "soft skills"ning maqsadli integratsiyasi yetarli darajada ta'minlanmaganligidir*. Amaldagi pedagogik amaliyotda lingvistik kompetensiyalarga (grammatika, fonetika, leksika) ustuvor e'tibor qaratilib, ijtimoiy-kommunikativ va shaxsiy rivojlanish ko'nikmalari ko'pincha darsning asosiy maqsadidan tashqarida, yondosh vazifa sifatida qolib ketmoqda.

O'quv dasturlarini modernizatsiya qilish bo'yicha xalqaro ekspert Charles Fadel ta'kidlaganidek, zamonaviy ta'limda mazmun (content) va ko'nikmalar (skills) bir-biridan ayro holda o'qitilmasligi kerak; til o'rgatish jarayoni talabaning tanqidiy fikrlashi va moslashuvchanligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi "kontekstli qobiq" vazifasini o'tashi kerak [5]. Bu fikrni iqtisodiy ta'lim kontekstida davom ettirgan J. Heckman va T. Kautz o'z tadqiqotlarida ta'lim tizimidagi "akademik markazlashuv"ni tanqid qilib, shaxsning ijtimoiy muvaffaqiyatini belgilovchi sohalararo ishlovchi ko'nikmalarni o'quv dasturlariga maqsadli ravishda singdirish (intentional integration) zarurligini alohida ta'kidlaydilar [6].

Xususan, iqtisodchi talabalar uchun ingliz tili shunchaki til bilan bog'liq bilimlar emas, balki professional faoliyat quroli bo'lishi lozim. Biroq, A.A.Verbitskiyning "kontekstli ta'lim" nazariyasida ta'kidlanganidek, o'quv faoliyati kelajakdagi kasbiy faoliyat modeliga (masalan, muzokara olib borish, jamoaviy tahlil) bog'lanmas ekan, ko'nikmalar o'rtasida uzilish yuzaga keladi [4]. Mazkur jihat Britaniyalik tadqiqotchi C. Andrewsning Graduate Employability nomli tadqiqotida ham o'z aksini topgan. Olim bitiruvchilarning ish beruvchilar talabiga javob bermasligiga asosiy sababi sifatida dars jarayonida professional bilimlar (hard business knowledge) bilan shaxsiy samaradorlik ko'nikmalarining (soft skills) sinxron ravishda o'qitilmasligini keltirib o'tadi [1]. Uning fikricha, oliy ta'limdagi "skills gap" ya'ni ko'nikmalar bo'shlig'i aynan ularning o'quv dasturiga tizimli integratsiya qilinmaganligi va mantiqiy izchillikning yo'qligi sababli

yuzaga kelmoqda. Binobarin, ingliz tili darslarida “soft skills”ni takomillashtirish shunchaki qo‘shimcha mashg‘ulot emas, balki talabaning kasbiy identifikatsiyasini ta‘minlovchi, mantiqan izchil tuzilgan konseptual-metodik model asosida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan jarayondir.

Bugungi zamonaviy oliy ta‘lim tizimida salmoqli o‘ringa ega mustaqil ta‘lim jarayonining ushbu ko‘nikmalar bilan metodik bog‘lanmaganligi muammoni yanada chuqurlashtiradi, deyish mumkin. Zimmerman ta‘kidlaganidek, mustaqil ta‘lim shunchaki darsdan tashqari bajariladigan ish emas, balki metakognitiv faoliyatdir. Olimning fikricha, talaba mustaqil ta‘lim jarayonida o‘z oldiga maqsad qo‘yish, shu maqsadga erishish, vaqtini boshqarish va o‘z natijasini tahlil qilishni o‘rganmas ekan, hech qanday bilim barqaror bo‘lmaydi [11].

Mustaqil ta‘limning mazmuni bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan Nilson oliy ta‘limda mustaqil ta‘limning mazmunini o‘zgartirish kerakligini asoslaydi. Uning “Self-Focused Learning” konsepsiyasiga ko‘ra, talabaga mustaqil ish uchun faqat ma‘lumot qidirish emas, balki refleksiya (o‘z-o‘zini tahlil) talab qiladigan topshiriqlar berilishi kerak [10]. Respublikamizdagi deyarli barcha OTMlarda HEMIS (Higher Education Management Information System) va Moodle (Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment) platformalari joriy etilgan. Mustaqil ta‘lim topshiriqlari ushbu tizimga yuklanadi va baholanadi. Bu holat shaffoflikni ta‘minlasa-da, ko‘pincha talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi “teskari aloqa” (feedback)ning yo‘qligi kuzatiladi. Talaba topshiriqni yuklaydi, lekin o‘z xatolari ustida refleksiv ishlamaydi.

Ta‘lim jarayonini kuzatish, mavzuga oid o‘tkazilgan so‘rovnama va tahlillar asosida hozirgi kunda O‘zbekiston oliy ta‘limida mustaqil ishlar ko‘proq mutaxassislik bilimlarini (hard skills) mustahkamlashga qaratilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Iqtisodchi talaba mustaqil ishda iqtisodiy nazariyani o‘qiydi, lekin uni ingliz tilida jamoada muhokama qilish (teamwork), axloqiy tafakkur asosida yechim berish yoki iqtisodiy risklarni tahlil qilish (critical thinking) kabi komponentlar topshiriqlar tarkibiga maqsadli kiritilmagan.

Uchinchidan, talabalarda *“soft skills” rivojlanish darajalarining ilmiy asosda aniqlanmaganligi va baholash tizimining standartlashtirilmaganligidir*. Hozirgi kunda talabalarda ushbu ko‘nikmalarining shakllanish bosqichlari, ularning o‘shish mexanizmi va monitoring mezonlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa ta‘lim natijalarini xolisona baholash va pedagogik tahlil qilish imkoniyatini sezilarli darajada cheklaydi.

V.A. Adolf va I.Yu.Stepanovalarning qayd etishicha, “soft skills” kabi shaxsiy sifatlarni baholashda aniq indikatorlarning yo‘qligi o‘qituvchining subyektiv xulosalariga tayanib qolishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida ta‘lim sifatini nazorat qilish mexanizmini izdan chiqaradi [2]. Ushbu muammoni xalqaro miqyosda tahlil qilgan L. Lippman va uning hammualliflari ta‘kidlashicha, “soft skills”ni o‘lchashdagi asosiy qiyinchilik — bu ko‘nikmalarining “nomoddiy” tabiatida bo‘lib, ularni baholash uchun faqatgina an‘anaviy testlardan emas, balki ko‘p qirrali (multi-dimensional) baholash asboblaridan foydalanish zarur [9].

Shu bilan bog‘liq holda, baholash mezonlari va indikatorlar standartlashtirilmaganligi sababli, jarayon ko‘pincha umumiy tavsiflar asosida amalga oshiriladi. M. Yorke va P. Knight o‘zlarining ishga joylashish qobiliyati modelida (employability model)

ko'nikmalarni baholashning "izchil o'lchov tizimi" (coherent measurement system) yo'qligi talabada o'z-o'zini baholash (self-assessment) ko'nikmasining rivojlanishiga ham to'sqinlik qilishini isbotlaganlar [8]. Iqtisodchi talabalar misolida, ularning ijtimoiy-professional o'sishi raqamlarda yoki aniq darajalarda (masalan, *past*, *o'rta*, *yuqori*) aks etmasligi, ularda motivatsiyaning pasayishiga va mustaqil ta'limga bo'lgan mas'uliyatning kamayishiga sabab bo'ladi. Binobarin, B.X. Xodjayev ta'kidlaganidek, har qanday pedagogik innovatsiyaning samaradorligi uning "diagnostikligi", ya'ni natijalarni aniq mezonlar asosida o'lchash mumkinligi bilan belgilanadi [13]. Bu o'z-o'zidan "soft skills"ning har bir komponent bo'yicha rivojlanish bosqichlari va malaka deskriptorlari, standartlashtirilgan baholash mezonlarini ishlab chiqilishni talab qiladi.

To'rtinchidan, *pedagogik va metodik jihatdan tizimning to'liq shakllanmaganligidir*. Bu, birinchi navbatda, o'quv jarayonida individual yondashuvning yetishmasligi, faol va interaktiv metodlarning epizodik xarakterga egaligi hamda darslik va o'quv materiallarining amaliy (kasbiy) yo'naltirilmaganligida namoyon bo'ladi. Mashhur pedagog olim Jeremy Harmer ta'kidlaganidek, agar o'quv materiallari talabaning real hayotiy va kasbiy ehtiyojlariga moslashtirilmasa, til o'rganish jarayoni faqat lingvistik mashqlarni bajarish bilan cheklanib qoladi. Bu esa til kompetensiyasining kommunikativ va funksional jihatdan shakllanmasligiga, o'rganilgan bilimlarning real kasbiy vaziyatlarda qo'llanilmasligiga hamda talabaning motivatsiyasi pasayishiga olib keladi. Natijada ta'lim jarayoni nazariy-lingvistik doirada qolib, amaliy-professional samaradorlik ta'minlanmaydi.

Shu bilan birga, raqamli resurslar va interaktiv platformalardan foydalanish darajasi hamon pastligicha qolmoqda. G. Salmon o'zining "E-moderating" konsepsiyasida raqamli muhit nafaqat axborot berish, balki talabalarning hamkorlikda ishlash (collaboration) va raqamli savodxonlik kabi "soft skills" ko'nikmalarini charxlovchi asosiy maydon bo'lishi kerakligini asoslagan [17].

Respublikamiz olimlaridan N.N. Azizxodjayeva ta'kidlaganidek, pedagogik texnologiyalarning samaradorligi bevosita talaba va o'qituvchi o'rtasidagi interaktivlik darajasiga bog'liq. Mazkur interaktivlik shunchaki muloqot shakli bo'lib qolmay, balki ta'lim jarayonining sifatini boshqarishda diagnostik funksiyani ham bajaradi. Xususan, iqtisodchi talabalar uchun ingliz tili darsliklarida "soft skills"ni rivojlantirishga xizmat qiluvchi loyiha ishlari, keys-stadi va jamoaviy simulyatsiyalar yetarli darajada taqdim etilmagan. Bu esa talabalarda nafaqat til to'sig'ini, balki professional muloqot va ijtimoiy moslashuv muammolarini ham keltirib chiqaradi.

Beshinchidan, *talabalar motivatsiyasining pastligi va ularning mustaqil ta'lim jarayonidagi shaxsiy mas'uliyati yetarli darajada shakllanmaganligidir*. Ushbu omil "soft skills"ni rivojlantirish jarayonining umumiy samaradorligini sezilarli darajada kamaytiruvchi pedagogik to'siq sifatida namoyon bo'ladi. Mashhur motivatsiya nazariyotchilari Edward Deci va Richard Ryan o'zlarining "O'z-o'zini aniqlash" (Self-Determination Theory) konsepsiyasida ta'kidlaganlaridek, agar ta'lim oluvchida ichki motivatsiya va avtonomiya (mustaqillik) yetishmasa, u murakkab ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirishda passivlik ko'rsatadi. Iqtisodchi talabalar misolida, agar ular ingliz tili darslaridagi topshiriqlarni faqat "baho olish" yoki "majburiyat" sifatida qabul qilsalar, ularda kasbiy moslashuvchanlik va jamoada ishlash kabi irodaviy sifatlar shakllanmaydi.

Rossiyalik olimi I.A. Zimnyaya ta'kidlaganidek, talabaning ta'lim jarayonidagi subyektiv faolligi uning nafaqat bilim egallashiga, balki shaxs sifatida shakllanishiga ham xizmat qiladi; mas'uliyatning yo'qligi esa kompetensiyalarning yaxlitligini buzadi [12]. Ushbu muammoni B. Zimmerman o'zining mustaqil ta'lim modellarida mantiqan davom ettirib, talabaning o'z o'quv faoliyati uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olmasligi (lack of self-regulation) har qanday metodik innovatsiyani natijasiz qoldirishini isbotlagan [11].

Jahon ilm-fanida aynan "soft skills" takomillashtirishga oid konsepsiyalar ko'zga tashlanmasada, mohiyatan unga yaqin bo'lgan ko'nikmalarni o'rganuvchilarda rivoj toptirish oid bo'lgan jahon, qolaversa, MDX davlatlari olimlarining nazariyalari va konsepsiyalarini mavjud. Mazkur nazariya va konsepsiyalarning mazmun-mohiyati va mexanizmi bir-biridan turli jihatlariga ko'ra farqlanadi (1-jadval):

Muallif va konsepsiya nomi	Asosiy mazmuni	Takomillashtirish mexanizmi
David Kolb: "Eksperimental ta'lim" nazariyasi	Ko'nikma bevosita shaxsiy tajriba va uni qayta ishlash orqali shakllanadi.	Jarayon 4 bosqichli sikldan iborat: Aniq tajriba (Talaba muammoli vaziyatga tushadi) → Refleksiv kuzatish (Talaba sodir bo'lgan voqeani tahlil qiladi) → Nazariy xulosa (Xulosalar chiqaradi va yangi strategiya tuzadi) → Amaliy sinov (Yangi strategiyani amalda sinab ko'radi)
Lev Vigotskiy: "Yaqin rivojlanish zonasi"	Ko'nikmalar ijtimoiy muhitda, murakkabroq vazifalarni hamkorlikda bajarish orqali o'sadi.	Ko'prik (Scaffolding): Talaba o'zi mustaqil qila olmaydigan, lekin ustoz yoki tengdoshi yordamida bajara oladigan vazifa orqali o'z chegaralarini kengaytiradi.
Albert Bandura: "Ijtimoiy o'rganish" konsepsiyasi	Inson xulq-atvori va hayotiy ko'nikmlari atrofdagilarni kuzatish orqali takomillashadi.	Modellashtirish: Diqqat → Eslab qolish → Takrorlash (Motor reproduksiya) → Motivatsiya. Namunaviy xatti-harakatni nusxalash va o'ziniki qilish.
Donald Schön: "Refleksiv amaliyotchi" nazariyasi	Professional mahorat (soft skills) faoliyat ustida doimiy mulohaza yuritish orqali charxlanadi.	Reflection-in-action: Jarayonning o'zida (masalan, muzokara paytida) xatolarni tuzatish va strategiyani o'zgartirish. Bu ko'nikmaning egiluvchanligini oshiradi.
T. Hodgson va Burke L. "Agile	Biznesdagi moslashuvchan	"Sprint" va "Scrum" jamoalari: O'quv jarayonini qisqa muddatli jamoaviy

pedagogy”	(Agile) boshqaruv uslubini ta’limga, ko’nikmalar transferiga ko’chirish.	loyihalarga bo’lish va har bir “sprint” oxirida tezkor teskari aloqa (rapid feedback) orqali muloqotni charxlash.
D. G. Sampson “Life-Ready Graduate “	Soft skillsni ko’rinadigan, o’lchanadigan va sertifikatlanadigan raqamli aktivga aylantirish.	“Digital Badges”: Ta’limni kichik modullarga bo’lish va har bir “soft skill” o’zlashtirilganda talabaga raqamli nishon berish orqali uning “Ko’nikmalar pasporti”ni (e-portfolio) yaratish.
H. Spowart “T-Shaped Professional” integrallashgan konsepsiyasi	Mutaxassis profilini vertikal (bilim) va gorizontaal (ko’nikma) o’qlarida sintez qilish.	“Soft skills” har qanday professional muhitda, asosan ish joyidagi hamkorlik yoki umumiy loyihalar orqali shakllanadi. Konsepsiyaga ko’ra muhitning qandayligi (fan turi) muhim emas, asosiysi muloqot maydonining mavjudligi.

2.3.1.-jadval. “Soft skills”ni rivojlantirishga oid konsepsiyalarning qiyosiy tahlili

Yuqorida keltirilgan qiyosiy tahlil natijalari shuni ko’rsatadiki, “soft skills”ni takomillashtirish masalasi klassik pedagogikadan tortib zamonaviy raqamli ta’lim konsepsiyalarigacha bo’lgan keng doirada tadqiq etilgan. Biroq, mavjud yondashuvlarning aksariyati yo sof psixologik o’sish mexanizmlariga (D.Kolb, A.Bandura), yo bevosita auditoriya mashg’ulotlari va jamoaviy faoliyatga (T.Hodgson, H.Spowart) yo’naltirilgan bo’lib, oliy ta’limning zamonaviy transformatsiya sharoitini, xususan, mustaqil ta’limning hal qiluvchi rolini yetarlicha qamrab olmaydi.

Binobarin, jahon tajribasidagi ilg’or konseptual yndashuvlarni (M.Bondning raqamli muhiti, D.Schönning refleksiyasi va H.Spowartning professional mappingi) o’zaro sintez qilgan holda, iqtisodiy yo’nalishdagi talabalar uchun “Ingliz tili mustaqil ta’limi sharoitida soft skillsni takomillashtirishning yaxlit konseptual-metodik modeli”ni ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Ushbu model nafaqat mavjud nazariyalarni to’ldiradi, balki ularni mustaqil faoliyat va raqamli transformatsiya talablari asosida yangi metodologik bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Andrews, J., & Higson, H. (2008). Graduate Employability, ‘Soft Skills’ Versus ‘Hard’ Business Knowledge. *Higher Education in Europe*, 33(4), 411-422.
2. Адольф В.А., Степанова И.Ю. Проектирование образовательного процесса на основе компетентностного подхода. — Красноярск, 2007.

3. Байденко В.И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОС ВПО нового поколения. — М., 2006.
4. Вербицкий А. А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. — М.: Высшая школа, 1991. — 207 с
5. Fadel, C., Bialik, M., & Trilling, B. (2015). *Four-Dimensional Education: The Competencies Learners Need to Succeed*. Center for Curriculum Redesign. — 192 p.
6. Heckman, J. J., & Kautz, T. (2012). Hard evidence on soft skills. *Labour Economics*, 19(4), 451-464.
7. Knight, P., & Yorke, M. (2004). *Learning, Curriculum and Employability in Higher Education*. London: Routledge.
8. Lippman, L. H., Ryberg, R., Carney, R., & Moore, K. A. (2015). Key "Soft Skills" that foster Youth Success: Toward a Consensus across Fields. *Child Trends*. — 120 p.
9. Nilson, L. B. (2013). *Creating Self-Regulated Learners: Strategies to Strengthen Students' Self-Awareness and Learning Skills*. Stylus Publishing.
10. Zimmerman, B. J. (2002). *Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview*. *Theory Into Practice*, 41(2), 64-70.
11. Зимняя И.А. Ключевые компетенции — новая парадигма результата образования. — М., 2003.
12. Ходжаев Б.Х. Умумий педагогика назарияси ва амалиёти. — Тошкент: Sano-standart, 2017. — 416 б.